

## 6-dars

### Darsning mavzusi: Tovushlar va harflar (17 – 19-mashqlar)

**Darsning ta'limiy maqsadi:** tovushlar, ularning so'z ma'nolarini farqlashi, to'g'ri talaffuzi, tovushlarning harflar bilan yozilishi, harflarning belgilari, grafik jihatdan to'g'ri shakllantirish haqidagi bilimlarini eslatish orqali mustahkamlash; unli va undosh tovushlar tallaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga bilish; talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'ziga kichiklarga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** o'quvchilardagi fonetik idrokni rivojlantirish; ularda bor bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tivojlantirish; texnika vositalaridan, didaktik materiallardan foydalanish.

**Darsning turi:** mustahkamlovchi dars

**Darsning metodi:** suhbat, analitik-sintetik metod, "Quvnoq daqiqalar", "So'zdan so'zni top" ta'limiy o'yinlari.

**Darsning jihizi:** tovushlar uchun katakchalar, kesma harflar, multimedia ilovalari.

#### Darsning borishi

##### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

##### II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

**Husnixat daqiqasi:** Aql yoshda emas, boshda.

Uy vazifasini tekshirish. 16-mashqning sharti o'quvchilarga o'qitiladi. Mashqning bajarish tartibi o'qituvchi tomonidan tekshirib chiqiladi. Unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini mustahkamlsh maqsadida savol-javob o'tkaziladi.

1. O'zbek tilida nechta tovush bor?
2. Tovushlar yozuvda nimalar bilan ifodalanadi?
3. Tovushlarning nechta belgisi bor?
4. Tovush ko'pmi yoki harf ko'pmi?

### **III. Mustahkamalash.**

Shundan so'ng o'quvchilarga 17-mashq o'quvchilarga bajartiriladi.

**So'zlarni ko'chiring. Ularning aytilishi va yozilishini taqqoslang.**

1. Shavkat, baho, havo, davlat, bahor, Kamol.
2. Maktub, avlod, oftob, ozod, ajdod, choyshab.
3. Chumchuq, supurgi, tutun, kumush, tuxum, Umid.

**So'zlarning yozilishini esda tutish lozimligi uqtiriladi.** Har bir so'zga so'roqlar berib, talaffuzi imlosidan farq qilayotganligi eslatilib o'tiladi.

**So'ngra o'quvchilarga 18-mashq bajartiriladi.** Mashqda berilgan "Oyning uyi" matni o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qayta o'qitilib, so'zdagi unli va undosh harflar soni yozdiriladi.

**Mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqli o'yinlardan foydalanish maqsadga muofiq bo'ladi.**

**"Quvnoq daqiqalar"** o'yini. O'quvchilar quyidagi savollar beriladi, ular savollarga tez javob beradilar.

1. *Namanganda 3 ta bor, Andijonda 1 ta bor. Nima u? (A harfi)*
2. *Tuyaqush nima uchun yuguradi? (Ucha olmagani uchun)*
3. *Tuyaning bolasi nima? (Bo'taloq)*
4. *Tilsiz, aql o'rgatar ? (Kitob)*
5. *12 yoshida katta davlatni boshqargan mashhur shoir kim? (Z.M.Bobur)*
6. *Eng uzun tun qaysi kunga to'g'ri keladi? ( 22-dekabr)*

**"So'zdan so'z top"** o'yini. Bunda o'quvchilarga bitta so'z beriladi va shu so'zda ishtirok etgan tovushlar yordamida nechta hosil qilish mumkinligi so'raladi. *Masalan, "Ovqatlanish" so'zidan kim nechta so'z topadi?*

*ovqat, ish, ov, nish, qat, tana, tanish, sholi...*

– Qani bolalar, **"Yeryong'oq"** so'zidan kim nechta so'z topadi?

### **IV. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zları egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### **V. Uyga vazifa berish.**

19-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.